HAMKORLIK MEMORANDUMI

OHANGARON SHAHAS 6-SONLI BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABI

OHANGARON SHAHAR "BARKAMOL AVLOD" BOLALAR MAKTABI

Ohangaron-2022

HAMKORLIK MEMORANDUMI

Ohangaron sh. **“ 5 ” Oktyabr 2022 y**

Toshkent viloyati Ohangaron shahar 6-sonli bolalar musiqa va san’ati maktabi, ustav asosida maktab direktori Sh.A.Nasirov tomonidan yuritiluvchi, keyingi o‘rinlarda maktab deb ataluvchi tashkilot, bir tomondan, va Ohangaron shahar “Barkamol avlod” bolalar maktabi, nizom asosida direktor H.S.Turgunov tomonidan yuritiluvchi tashkilot, ikkinchi tomondan, keyingi o‘rinlarda birgalikda “Taraflar” deb ataluvchilar, ushbu Memorandumni (keyingi o‘rinlarda “Memorandum”) O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, quyida mazmunda tuzdilar:

1.Memorandum predmeti

1.1.Ushbu memorandumning predmeti taraflar o‘rtasida ta’lim, konsalting, malaka oshirish , shuningdek ilm-fan va tadqiqot faoliyatlaridagi hamkorlikdir.

1.2.Ushbu Memorandum taraflarning o‘zaro hamkorligining umumiy tamoyillarini belgilaydi va taraflarga moliyaviy majrubiriyatlarni yuklamaydi. Hamkorlik ko‘lami va doirasini kengaytirish, chuqurlashtirishni nazarda yo‘naltirishni ishlab chiqarish va amalga oshirish, shuningdek ularni amalga oshirishning tashkiliy shakllarini aniqlash maqsadida shuningdek taraflarning moliyaviy majburiyatlarini axborotning maxfiyligi masalalarini intelektual mulk obyektlariga taraflarining xuquqlarini va hamkorlikni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan boshqa jihatlarni aniqlash uchun taraflar o‘zaro va alohida uchinchi tomon tashkilotlarini jalb qilgan holda shartnoma va bitmlar tuzadilar. Hamkorlikni amalga oshirish uchun taraflar o‘zlarining, hamda xalqaro tashkilotlar va fondlarning mablag‘larini jalb qilishlari mumkin.

2.Hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari.

2.1.Taraflar o‘z vakolatlari doirasida quyidagi asosiy yo‘nalishlarda hamkorlik qilishadi:

2.2. Hamkorlikda “Barkamol avlod” bolalar maktabining madaniyat va san’at yo‘nalishidagi to‘garaklar uchun dars va qo‘llanmalar ishlab chiqish;

2.3.O‘zaro manfaatli sohalarda ilmiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashish;

2.4. “Barkamol avlod” bolalar maktabida tashkil etilayotgan onlayn mashg‘ulotlarga madaniyat sohasidagi professional mutaxassislarni amaldagi qonunchilikka muvofiq, shartnoma asosida jalb qilish;

2.5. O‘zaro kelishuv bo‘yicha boshqa yo‘nalishlarda hamkorlik qilish.

3.Hamkorlik shakllari

3.1.Hamkorlik shakllari, taraflarning axborot-maslahat hamkorligini belgilaydi, shu jumladan:

3.2. Taraflar manfaatlariga dahldor rejalashtirilgan tadbirlar to‘g‘risida ma’lumot almashish;

3.3.Konferensiyalar, seminarlar, treninglarni birgalikda o‘tkazish, taraflarning mintaqaviy va xalqaro tadbirlarida ishtirok etish;

3.4. Taraflar ushbu Memorandum doirasida hamkorlikni muvofiqlashtirish uchun ma’sul shaxslarni o‘z xodimlari orasidan oldindan belgilaydilar;

3.5. Taraflar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlarini ifodalovchi ushbu Memorandumda nazarda tutilmagan hamkorlik shakllari qo‘shimcha bitim yoki alohida shartnomalar bilan tasdiqlanadi.

3.6. Taraflar ushbu memorandumni amalga oshirish doirasida bir-birlaridan kerakli ma’lumotlarni so‘rashga haqlidirlar.

4.Hamkorlik shartlari

4.1.Ushbu Memorandum taraflarga moliyaviy majburiyatlarni yuklaydi.

4.2. Tarfalar tomonidan bir-irga taqdim etiladigan ma’lumotlar maxfiy hisoblanadi (oshkor etuvchi tarafning aniq ifoda etilgan niyatiga muvofiq ochiq ma’lumotlar bundan mustasno). Taraflar olingan maxfiy ma’lumotlarning uchinchi shaxslarga oshkor qilinishining olidni olish uchun zarur choralarni ko‘radilar.

4.3. “6-sonli BMSM” va “Barkamol avlod” bolalar maktabi o‘rtasidagi ushbu Memorandum bo‘yicha reklama sohasidagi hamkorlik shakli ikki tarafning ichki pozitsiyasiga muvofiq amalga oshiriladi.

4.4. Ushbu Memorandum bo‘yicha barcha tadbirlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

4.5. Ushbu Memorandumning shartlari taraflarni shartnomalar va uchinchi shaxslarga nisbatan qabul qilingan xuquqiy majburiyatlarning boshqa shakllari bo‘yicha majburiyatlaridan ozod qilmaydi va ularning boshqa hamkorlik shakllariga bo‘lgan huquqlarini cheklamaydi.

5.Yakuniy shartlar

5.1. Ushbu Memorandumdan kelib chiqqan nizolar va nomuvofiqliklar taraflaning kelishuvi orqali hal etiladi.

5.2. Ushbu Memorandumga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar taraflarning o‘zaro kelishuvi bo‘yicha taraflarning vakolatli vakillari tomonidan qo‘shimcha bitimlarni imzolash yo‘li bilan kiritilishi mumkin.

5.3.Ushbu Memorandum quyida ko‘rsatilgan har ikkala tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va yozma bildirishnoma orqali bekor qilingunga qadar amal qiladi. Bunday holda , ushbu Memorandum taraflardan biri boshqa tarafning yozma xabarnomasini olgan kundan boshlab olti oy o‘tgach kuchini yo‘qotadi.

5.4.Ushbu Memorandum bir xil kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada o‘zbek tilida tayyorlangan.

6.Taraflar imzosi

Ohangaron shahar 6-sonli bolalar musiq a va san’ati maktabi

Direktor:_____Sh.A.Nasirov

Ohangaron shahar “Barkamol avlod” Bolalar maktabi

Direktor:_____H.S.Turgunov